O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FARG‘ONA VILOYATI HOKIMINING QARORI

2024 - yil 18 - iyul 393-11-0-Q/24 Farg‘ona viloyati hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 7-maydagi 268-son qarori ijrosi haqida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 19-apreldagi “Iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-162-son qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 7-maydagi 268-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida,

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 7-maydagi 268-son qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur qaror bilan vazirlik va idoralar, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklariga:

bir oy muddatda o‘zlari aksiyador (ishtirokchi), muassis bo‘lgan, davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan xo‘jalik jamiyatlari va davlat unitar korxonalari (keyingi o‘rinlarda - davlat ishtirokidagi korxonalar) bilan birgalikda:

xususiylashtirish dasturlariga muvofiq savdoga chiqarilishi belgilangan davlat ishtirokidagi korxonalarning aktivlarini Davlat aktivlarini boshqarish agentligi hududiy boshqarmasiga (keyingi o‘rinlarda - Davaktiv agentligi hududiy boshqarmasi) o‘tkazib berish masalasini mazkur korxonalarning boshqaruv organlari yig‘ilishlarida ko‘rib chiqib, hal etish;

davlat ulushi savdoga chiqarilishi belgilangan davlat ishtirokidagi

korxonalarning ustav kapitalida boshqa davlat ulushi ustun mavqega ega yoki uning ishtirokida bo‘lgan xo‘jalik jamiyatlarining ulushlari Davaktiv agentligi hududiy boshqarmasi tomonidan aniqlanganda, ularning boshqaruv organlari qarorlari asosida yaxlit paket sifatida savdoga chiqarish uchun ushbu ulushlarni Davaktiv agentligi hududiy boshqarmasiga o‘tkazib berish;

davlat ishtirokidagi korxonalar bilan birgalikda xususiylashtirilishi belgilangan davlat aktivlarini ular sotilgunga qadar butligini ta’minlash va begonalashtirmaslik (sotish, sotiladigan ulush miqdorini kamaytirish, garovga qo‘yish, buzish va boshqalar) choralarini ko‘rib chiqishni ta’minlash;

bunda, xususiylashtirish dasturlariga muvofiq savdoga chiqarilishi belgilangan aktivlar quyidagi mexanizmlar asosida Davaktiv agentligi hududiy boshqarmasiga o‘tkazish;

davlat ishtirokidagi korxonalarning ustav kapitalidagi davlat hamda xo‘jalik jamiyatlari ulushi ular tomonidan Davaktiv agentligi hududiy boshqarmasiga topshirilgan aktivlarning sotilgan qiymatiga mos ravishda kamaytiriladi. Bunda sotilgan qiymat aktivlarning qoldiq (balans) qiymatidan yuqori bo‘lgan taqdirda, davlat va xo‘jalik jamiyati ulushlari qoldiq (balans) qiymati miqdoriga kamaytirish;

davlat ulushini yaxlit paketda savdoga chiqarish uchun davlat ulushi ustun mavqega ega yoki uning ishtirokida bo‘lgan xo‘jalik jamiyatlarining ulushlari balans qiymatida yoki baholangan qiymatda ularning ustav fondidagi davlat va xo‘jalik jamiyati ulushlarini kamaytirish hisobidan Davaktiv agentligi hududiy boshqarmasiga o‘tkazish;

kredit qarzdorliklari yoki Hukumat qarorlari asosida davlat ishtirokidagi tijorat banklariga o‘tkazilgan aktivlar (xo‘jalik jamiyatlari ulushlari) Davaktiv agentligi hududiy boshqarmasiga tijorat banklarining boshqaruv organlari qarori asosida o‘tkaziladi. Bunda aktivlarni berish ularning ehtimoliy yo‘qotishlarga qarshi yaratilgan zaxiralari yoki aktivlarni sotishdan tushgan mablag‘larni ularni savdoga chiqarish va sotish bilan bog‘liq xarajatlarni chegirgan holda ushbu tijorat banklariga o‘tkazish orqali beriladi. Agar obyektlarning sotilgan qiymati qoldiq (balans) qiymatdan yuqori bo‘lsa, tijorat banklariga qoldiq (balans) qiymati yo‘naltirilishi;

bunda sotilgan qoldiq (balans) qiymatidan yuqori bo‘lgan taqdirda, davlat va xo‘jalik jamiyati ulushlari qoldiq (balans) qiymati miqdoriga kamaytiriladi;

xususiylashtirish dasturlariga kiritilgan ko‘chmas mulklarning kadastr hujjatlarida kamchiliklar aniqlanganda (hujjatlar mavjud bo‘lmaganda), ushbu ko‘chmas mulklarga kadastr pasporti va davlat reestridan ko‘chirmalar uchun to‘lovlar Davlat aktivlarini boshqarish, transformatsiya va xususiylashtirish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan amalga oshirilishiga ruxsat berilishi;

qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer uchastkalarini elektron onlayn-auksion savdolari orqali realizatsiya qilishda, yer uchastkasiga bo‘lgan huquq turi va unda ruxsat beriladigan faoliyat turlari aholi punktlarining bosh rejalari, aholi punktlari qismlarini batafsil rejalashtirish loyihalari yoki hududlarni kompleks rivojlantirish va rejalashtirish bo‘yicha boshqa hujjatlar (keyingi o‘rinlarda - shaharsozlik hujjatlari), shu jumladan, master-rejalar yoxud yer uchastkalaridan foydalanishning ruxsat etilgan turlaridan kelib chiqqan holda, tuman (shahar) qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bo‘limlari tomonidan belgilanadi. Bunda yer uchastkasi joylashgan aholi punktlarining tasdiqlangan shaharsozlik hujjatlari, va master-rejalari mavjud bo‘lganda, yer uchastkalari qatiy ravishda mulk huquqi asosida savdolarga chiqarish belgilangan.

Farg‘ona viloyati hokimining qurilish, kommunikatsiyalar, kommunal xo‘jalik, ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari X.Isaqov tuman (shahar) qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bo‘limlari xodimlarining qurilish obyektlarining tashqi qiyofasini belgilash bo‘yicha shaxsiy mas’uliyatini kuchaytirish choralarini ko‘rsin.

3. Davaktiv agentligi hududiy boshqarmasi zarur hollarda, davlat ishtirokidagi korxonalar aktivlarini o‘tkazib berish tartibi bo‘yicha Davlat aktivlarini xususiylashtirish va xususiylashtirish jarayonlarini muvofiqlashtirish bo‘yicha davlat komissiyasi kun tartibiga kiritish bo‘yicha Davaktiv agentligiga takliflar kiritib borsin.

Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi hamda Davaktiv agentligi hududiy boshqarmasi davlat ishtirokidagi korxonalar bilan birgalikda ular tomonidan joylashtirilgan obligatsiyalarni, xorijiy moliya tashkilotlari va banklaridan jalb etilgan kreditlar bo‘yicha o‘rnatilgan kovenantlarni qonunchilik hujjatlari bilan ularning ustav kapitali miqdoriga belgilangan talablarni inobatga olgan holda Davaktiv agentligiga o‘tkazish bo‘yicha takliflar kiritsin.

4. Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi boshqarmasi, Transport boshqarmasi, Kadastr agentligi Farg‘ona viloyati boshqarmasi, Davaktiv agentligi

hududiy boshqarmasi va tuman va shaharlar hokimliklari bilan birgalikda:

tadbirkorlik va shaharsozlik faoliyatini tashkil etish uchun 1-ilovadagi rejaga muvofiq yer uchastkalarining ustuvor ravishda mulk huquqi asosida auksion savdolariga chiqarilishini ta’minlasin.

Bunda:

shaharsozlik hujjatlari ishlab chiqilmagan yer uchastkalari ijara huquqi asosida savdoga chiqarilishi;

yer uchastkalarini mulk huquqi asosida savdoga chiqarishda yer uchastkalariga qo‘yiladigan shaharsozlik talablarining bajarilishiga Kurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi boshqarmasi tomonidan alohida e’tibor qaratilishi;

xalqaro ahamiyatdagi avtomobil yo‘llari bo‘ylab zamonaviy infratuzilmani barpo etish, savdo va servis obyektlarini joylashtirish uchun 1a-ilovadagi rejaga muvofiq yer uchastkalari master-reja asosida savdolarga chiqarilishi;

2024-yil 1-iyulga qadar Sog‘liqni saqlash boshqarmasi, Maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar boshqarmasi bilan birgalikda tibbiyot va ta’lim muassasalarining bo‘sh yer maydonlarini to‘liq xatlovdan o‘tkazib, ro‘yxatini shaklantirsin.

Bunda:

Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi, Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik boshqarmasi, Kurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi boshqarmasi tomonidan xatlov natijasida aniqlangan bo‘sh yer uchastkalari joylashgan hududlarda aholini kamida 10 yillik demografik rivojlanish prognoz ko‘rsatkichlarini inobatga olib, auksion savdolariga chiqariladigan bo‘sh yer uchastkalarining ro‘yxati shakllantirilishi;

Kadastr agentligi Farg‘ona viloyati boshqarmasi, Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi boshqarmasi hamda Davaktiv agentligi hududiy boshqarmasi tomonidan shakllantirilgan ro‘yxat asosida bo‘sh yer uchastkalari faqat xususiy ta’lim va tibbiyot tashkilotlarini tashkil etish va ushbu faoliyatni amalga oshirish sharti bilan auksion savdolariga chiqarilsin.

5. Farg‘ona viloyati hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari X.K.Sirojitdinov yer uchastkalarining mulk va ijara huquqi asosida sotilishi holatidan kelib chiqib,

hududlarda kelgusi oyda savdoga chiqariladigan yer uchastkalarining reja-grafigini oyma-oy tasdiqlab borsin va uning ijrosini qat’iy nazoratga olsin.

6. Tuman va shahar hokimliklari tomonidan tijorat banklari ko‘magida 2-ilovaga muvofiq tuman va shaharlarda zamonaviy xizmat ko‘rsatish majmualari va servis obyektlarini, jumladan, joylashtirish vositalari, turar joylar, savdo-ko‘ngilochar markazlarini joylashtirish bo‘yicha master-reja loyihalari tayyorlanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

Tuman va shahar hokimliklari:

2024-yil 10-maydan boshlab joriy yil yakuniga qadar Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi boshqarmasi hamda Kadastr agentligi Farg‘ona viloyati boshqarmasi bilan birgalikda master-rejalarga muvofiq zamonaviy xizmat ko‘rsatish majmualari va servis obyektlarini, jumladan, joylashtirish vositalari, turar joylar, savdo-ko‘ngilochar markazlarini tashkil qilish uchun bo‘sh yer uchastkalarini auksion savdolariga chiqarish choralarini ko‘rsin;

2024-yil 1-iyulga qadar aniq yer uchastkasi bo‘yicha master-rejalarning ishlab chiqilishini yakunlab, hududiy arxitektura va shaharsozlik kengashlari bilan kelishilgan holda tasdiqlanishini ta’minlasin;

Qishloq xo‘jaligi boshqarmasi bilan birgalikda master-reja ishlab chiqilgan hududlardagi yer uchastkalarining toifasini sug‘orilmaydigan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar toifasidan sanoat, transport, aloqa, mudofaa va boshqa maqsadlarga mo‘ljallangan yerlar toifasiga o‘tkazish bo‘yicha takliflarni Investitsiyalarni jalb qilish, sanoatni rivojlantirish va savdoni tartibga solish masalalari bo‘yicha Hukumat komissiyasiga kiritib borsin.

7. Davaktiv agentligi hududiy boshqarmasi Investitsiyalar, sanoat va savdo boshqarmasi, tuman (shahar) hokimliklari bilan birgalikda master-rejalar va ular asosida auksion savdolariga chiqariladigan yer uchastkalari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni aholi hamda tadbirkorlar, jumladan, mahalliy va xorijiy investorlar o‘rtasida keng yoritilishini tashkil qilsin.

Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi boshqarmasi, Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi, Kadastr agentligi Farg‘ona viloyati boshqarmasi, Turizm boshqarmasi, tuman va shahar hokimliklari bilan birgalikda bir oy muddatda 2024-yilda qo‘shimcha ravishda 17 ta tuman va shaharda master-rejalarning ishlab chiqilishini tashkil etish yuzasidan tegishli qaror loyihasini Farg‘ona viloyati

hokimligiga tasdiqlash uchun kiritsin.

Bunda:

mahalliy ijro hokimiyati organlari tuzilmalaridagi mavjud shtat birliklari doirasida master-rejalarni ishlab chiqishga koʻmaklashuvchi guruhlar faoliyatini yoʻlga qoʻyish;

master-rejalarni ishlab chiqishning moliyalashtirish manbalarini belgilash, jumladan donor tashkilotlarning grantlarini jalb qilish va Davlat byudjetidan byudjet ssudasini ajratish;

master-rejalarni ishlab chiqishga iqtisodiy kompleks tarkibiga kiruvchi boshqarma va takshilot rahbarlari hamda ularning oʻrinbosarlarini biriktirishni nazarda tutsin.

8. Kadastr agentligi Fargʻona viloyati boshqarmasi Qishloq xoʻjaligi boshqarmasi bilan birgalikda 1a-ilovaga muvofiq kelgusida zamonaviy xizmat koʻrsatish majmualari va servis obyektlarini, jumladan, joylashtirish vositalari, turar joylar, savdo-koʻngilochar markazlarini joylashtirishni nazarda tutuvchi master-reja loyihalari asosida auksion savdolariga chiqariladigan yer uchastkalarining toifasini sanoat, transport, aloqa, mudofaa va boshqa maqsadlarga moʻljallangan yerlar toifasiga oʻzgartirish yuzasidan Yer resurslarining holati boʻyicha milliy hisobotga tegishli oʻzgartirishlar kiritilishini taʼminlasin.

9. Viloyatdagi shahar va shaharchalarning shaharsozlik hujjatlari (bosh rejalar) bilan taʼminlash rejasi 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Qurilish va uy-joy kommunal xoʻjaligi boshqarmasi, Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi, tuman va shahar hokimliklari bilan birgalikda mazkur qarorga 3-ilovadagi shahar va shaharchalarning bosh rejasi hamda boshqa shaharsozlik hujjatlarining oʻz vaqtida va sifatli ishlab chiqilishi uchun masʼul etib belgilansin.

10. Majburiy ijro byurosi Fargʻona viloyati boshqarmasi, Soliq bosh boshqarmasi hamda Davaktiv agentligi hududiy boshqarmasi bilan birgalikda xususiylashtirish dasturlariga kiritilgan aktivlarga qoʻyilgan taqiqlarning belgilangan tartibda yechish choralarini koʻrsin.

11. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish Fargʻona viloyati hokimining oʻrinbosarlari X.Sirojitdinov va X.Isaqovlar zimmasiga yuklansin.

Viloyat hokimi **X. Bozarov**

Farg‘ona viloyat hokimining
2024-yil 18-iyuldagi
393-11-0-Q/24-son qaroriga
1-ilova

Tadbirkorlik va shaharsozlik faoliyatini tashkil etish uchun 2024-yilda ustuvor ravishda mulk huquqi asosida yer uchastkalarini auksion savdolariga chiqarish REJASI

T/R	Hududlar	Jami yer uchastkalari (ga)	*shundan*			
			1-chorak*	2-chorak	3-chorak	4-chorak
Farg‘ona viloyati		**413,7**	**75,0**	**132,3**	**123,5**	**82,9**
1	Bag‘dod tumani	**18,1**	3,2	5,8	5,4	3,7
2	Beshariq tumani	**16,2**	2,9	5,2	4,9	3,2
3	Buvayda tumani	**28,1**	5,0	9,0	8,4	5,7
4	Dang‘ara tumani	**10,5**	1,8	3,5	3,2	2,0
5	Yozyovon tumani	**59,7**	11,5	18,9	17,4	11,9
6	Quva tumani	**11,9**	2,2	3,8	3,6	2,3
7	Quvasoy shahri	**21,9**	4,0	7,0	6,6	4,3
8	Qo‘qon shahri	**4,7**	0,9	1,5	1,4	0,9
9	Qo‘shtepa tumani	**18,9**	3,4	6,1	5,7	3,7
10	Marg‘ilon shahri	**3,8**	0,7	1,2	1,1	0,8
11	Oltiariq tumani	**8,1**	1,4	2,6	2,4	1,7
12	Rishton tumani	**11,9**	2,2	3,7	3,5	2,5
13	So‘x tumani	**2,8**	0,5	0,9	0,8	0,6
14	Toshloq tumani	**35,3**	6,3	11,3	10,6	7,1
15	Uzbekistan tumani	**38,1**	6,8	12,2	11,4	7,7
16	Uchko‘prik tumani	**38,1**	6,8	12,2	11,4	7,7
17	Farg‘ona tumani	**21,9**	4,0	7,0	6,6	4,3

18	Farg‘ona shahri	**17,2**	3,1	5,5	5,2	3,4
19	Furqat tumani	**46,5**	8,3	14,9	13,9	9,4

Izoh. *Joriy yilning 1-choragida amalda savdoga chiqarilgan yer uchastkalari inobatga olingan holda reja shakllantirilgan.*

Farg‘ona viloyat hokimining
2024-yil 18-iyuldagi
393-11-0-Q/24-son qaroriga
2-ilova

Xalqaro ahamiyatdagi avtomobil yo‘llari bo‘ylab zamonaviy infratuzilmani barpo etish, savdo va servis obyektlarini joylashtirish uchun master-reja asosida savdolarga chiqariladigan yer uchastkalari REJASI

№	Hududlar	Yer uchastkalari			
		Soni	Maydoni (ga)	Xalqaro ahamiyatdagi avtomobil yo‘l NOMI	Yer uchastkasi joylashgan kilometr (km)
Farg‘ona viloyati		**21**	**4,2**		
1	Beshariq tumani	3	0,6	A-376	43
2	Yozyovon tumani	5	1,01	A-373	363
3	Qo‘shtepa tumani	13	2,6	A-373	376

Farg‘ona viloyat hokimining
2024-yil 18-iyuldagi
393-11-0-Q/24-son qaroriga
3-ilova

Tuman va shaharlarda zamonaviy xizmat ko‘rsatish majmualari va servis obyektlarini, jumladan, joylashtirish vositalari, turar joylar, savdo-ko‘ngilochar markazlarini joylashtirish bo‘yicha MASTER-REJA LOYIHALARI

T/r	Tuman (shahar) nomi	Auksionga chiqariladigan yer maydonlari			*shundan*																	
		lot soni	maydoni, gektar	obyekt soni	**chakana savdo**		**yirik savdo, bozor majmualari**		**umumiy ovqatlanish shoxobchalari**		**ko‘ngilochar markazlar**		**maishiy xizmat ko‘rsatish obyektlari**		**xususiy ijtimoiy xizmatlar**		**ko‘p- qavatli uy-joy binolari**		**joylashtirish vositalari**		**boshqalar**	
					obyekt soni	maydoni, gektar	obyekt soni	maydoni, gektar	obyekt soni	maydoni, gektar	obyekt soni	maydoni, gektar	obyekt soni	maydoni, gektar	obyekt soni	maydoni, gektar	obyekt soni	maydoni, gektar	obyekt soni	maydoni, gektar	obyekt soni	maydoni, gektar	obyekt soni	maydoni, gektar
Jami		**447**	**577,6**	**1 304**	**183**	**29,3**	**18**	**32,2**	**135**	**10,6**	**26**	**98**	**373**	**44,6**	**63**	**27,2**	**387**	**228,4**	**23**	**23,4**	**96**	**83,7**
15	Farg‘ona shahri	63	56,8	494	60,0	8,0	1,0	0,3	60,0	2,0	2,0	8,5	250	3,5			72,0	18,3	4,0	1,2	45,0	15,0

Izoh. *Auksionga chiqariladigan lotlar soni, maydoni hamda obyektlar soni va yo‘nalishlariga yer tanlash materiallari ishlab chiqilib, "Yerelektron" ATT orqali kelishilgandan so‘ng aniqlik kiritiladi.*